

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGINING TASHKIL TOPISHI VA UNING MAQSADLARI

Sarvinoz Xushmatova

O'zMU tarix fakulteti II kurs magistranti

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi uchun birinchidan, turli davlatlar orasida iqtisodiy aloqalarning chuqurlashuvi jahon xo'jaligining bir butunligini, ya'ni globallashuv jarayonining kuchayishi, ikkinchidan, jahon iqtisodiy jarayonlarining kechishi ko'p jihatdan davlatlarning mintaqaviy darajada birlashuvi, yirik mintaqaviy integratsiya tuzilmalarining shakllanishi va rivojlanishiga bog'liqligi xosdir. Ko'pchilik mutaxassislar fikricha, XXI asr tovarlar, kapital, texnologiyalar, axborot va ishchi kuchining yagona dunyoviy bozori shakllanishi asri bo'ladi. Bunda Yevropa Ittifoqi, NAFTA, ATES kabi mintaqaviy tuzilmalar asosiy rol o'ynaydi.

Bu kabi jarayonlar Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) hududida ham sodir bo'lmoqda, biroq ular dunyoning boshqa mintaqalaridan shakllanishi va rivojlanishidagi xususiyatlari bo'yicha farq qiladi. MDH davlatlari bir asrdan kamroq vaqt davomida sobiq Ittifoq tarkibida rivojlandi. XX asrning oxirlariga kelib, butun dunyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlari kuchaygan bir paytda sobiq Ittifoq hududida buning aksi sodir bo'ldi. 1991-yil oxirida SSSRning xalqaro huquq subyekti sifatidagi mavjudligi barham topib, ittifoqdosh respublikalar musraqillikka erishdi. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belorussiya, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo'q bo'lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi¹. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston qo'shildi, ular Belorussiya, Rossiya, Ukraina bilan birga MDHning maqsad qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzo chekdilar.

¹ Арсланов Р.А., Блохин В.В., Джангирия В.Г., Ершова О.П., Мосейкина М.Н: История отечества с древнейших до конца XX века. Част 2. Москва 2003. С 250-251.

1993-yilda MDHga Gruziya qo'shildi. 1993-yilda MDH ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'ligi va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi. MDH haqiqiy azolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi azolar bo'lishi mumkin².

MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan:

Davlat boshliqlari kengashi;

Hukumat boshliqlari kengashi;

Tashqi ishlar vazirlari kengashi;

Davlatlararo iqtisodiy qo'mita;

Markazi Sankt-Peterburgda bo'lgan Parlamentlararo assambleya va boshqalar.

MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan, Muvofiqlashtiruvchi-maslahat qo'mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. MDHning organlarining faoliyati MDH nizomi bilan tartibga solinadi. Sobiq Ittifoq parchalangach, yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning bir-biriga bog'langan iqtisodiyotni to'ldirib turish zarur edi. Hamdo'stlik mana shunday to'ldiruvchilik rolni o'ynadi, parchalanish jarayonida nizo-janjall chiqishga yo'l qo'ymadi. Hamdo'stlik hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

MDH yon-atrofdagi voqealarga munosabat bildirishda yakdillik ko'rsatish, xususan terror, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, ekstremizm kabi balolarga qarshi turishda hamjihatlikni mustahkamlash, bahamjihat harakat qilishda muhim o'ringa ega. Hamdo'stlikning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda dunyoda yuz berayotgan

² В.И. Моряков, В.А. Федоров, Ю.А. Щетинов: История Россия для поступающих в вузы. Москва 2006. С 431-432.

iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga tayyor turish, turli inqirozlarni yengishda barcha a'zo davlatlar uchun kerakli va foydali tashkilotdir.³Mamlakatlarning bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga yordam berdi. 1993-yil yanvarda Minskda MDH davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'ldi. Unda MDHning nizomi imzolandi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi. 1991-1999-yillarda MDH davlat boshliqlarining 25 ga yaqin kengashi bo'lib, ularda hammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalarga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi⁴.

Hamdo'stlik mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy aloqalari katta mashaqqatlar va sekinlik bilan mustahkamlanib bordi. Qabul qilingan hujjatlarning aksariyati qog'ozda qolib ketdi. 2000-yil 24-25 yanvar kunkari Moskvada MDH mamlakatlari davlat rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda Rossiya davlat boshlig'i Putin Hamdo'stlik davlatlari boshliqlari kengashining raisi etib saylandi. Ukraina bosh vaziri V. Yushenko MDH mamlakatlari hukumat boshliqlari kengashining raisi etib saylandi. Kengashda MDH azolari bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, MDHni isloh qilish borasidagi masalalar muhokama qilindi. Bu kengash MDHning kelajagiga katta ishonch uyg'otdi. O'zbekiston o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda.

O'zbekiston MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqliligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotlarda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.⁵

O'zbekiston uchun MDH doirasida hamkorlik quyidagilarga asoslanadi:

O'zbekiston va MDH davlatlarining birgalikda tarixan vujudga kelishi;

³ В.И. Моряков, В.А. Федоров, Ю.А. Щетинов: История Россия для поступающих в вузы. Москва 2006. С 431-432.

⁴ Б. Пастухов. СНГ пересекающееся множества: политическая интеграция.//Международная жизнь. 2004.

⁵Экономика СНГ: 10 лет реформирования и интеграционного развития [\ Под рук. В.А.Шульги и В.Г.Федоова.-М.,Финстатинформ, 2001. С.12.](#)

Shunga muvofiq, ular hududida shakllangan nisbatan rivojlangan umumiy ishlab chiqarish infratuzilmasining mavjudligi va o'zaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi tajribalariga ega ekanligi;

Madaniy yaqinlik va barcha xalqlar uchun umumiy til vositasi (rus tili);

MDH yo'nalishidagi transport kommunikatsiyalarning rivojlanganligi va O'zbekiston uchun tranzit imkoniyatlarning mavjudligi;

Mamlakat milliy tovarlari uchun tarixiy shakllangan ulkan sig'imli bozorning borligi;

Mamlakat mehnat resurslarining MDH bozorlaridagi yuqori raqobatdoshligi;

MDHga a'zo ayrim davlatlar bilan geoiqtisodiy va geosiyosiy manfaatlar umumiyli va h.k.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqil O'zbekiston o'zining tashqi siyosatini shakllantirishda o'zi uchun mutlaqo yangi va hali sinalmagan faoliyat yo'llaridan o'tishiga to'g'ri keldi. Mustaqillik yillarida davlatlararo hamkorlikning yangicha mexanizmlari va shakllari qaror topdi. Ichki ijtimoiy tuzilmalarning tubdan o'zgartirilishi xalqaro darajadagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shu jumladan, MDH mamlakatlari bilan o'rnatilgan aloqalarni ham tubdan qayta qurishni taqozo etdi. Shu jumladan, davlatlararo hamkorliklar sohasida yuz bergan o'zgarishlarni global hamda mintaqaviy darajalarda ilmiy baholash eng dolzarb vazifadir. Jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stlik mamlakatlari ham O'zbekiston Respublikasi bilan manfaatli hamkorliklarining katta ahamiyatga egaligi ayni haqiqatdir. MDH mamlakatlari va O'zbekiston Respublikasi hamkorlik aloqalarida tinchlik, barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sohalarda hamkorlikni mustahkamlashdan iborat.